

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 29 - mart

102-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani “Konshi” MFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 30-yanvardagi 16/50-sonli buyurtma xatini inobatga olib, “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi va “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chimboy tumani “Konshi” MFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan jami 1,4665 gektar, shundan 0,68 gektar 50 o'rinli maxsus qabulxona binosi qurilishi uchun va 0,7865 gektar uchinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi va tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi binolarini qurish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin hamda yer uchastkalarining elektron xaritalari 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov) belgilangan tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji

uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 29 martdagi
102-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani "Konchi" MFY xududidan
Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga 50 o'rinli maxsus qabulxona
binosi qurilishi uchun tanlangan yer uchastkasining
TARXI 1:2000 m



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, Sharqdan Letsiy, g'arbdan ochiq moydon, Shimoldan ochiq moydon Janubdan Shimbay Agro klaster JSHJ Garib oshiq moydon

Koordinatasi

42°54'38,496" 59°46'34,089" 42°54'38,483" 59°46'36,283" 42°54'34,134" 59°46'36,171"
42°54'34,018" 59°46'33,977"

Tuman markazidan 1.5 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0.68 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga 50 o'rinli maxsus qabulxona binosi qurilishi uchun


Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:13:01:05:7174

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 29 martdagi
102-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpoqiston Respublikasi CHimboy tumani «Konshi»MFY xududidan
CHimboy tumani IIB yangi bino kurilishi, uchinchi mintakaviy muvofiklashtirish
markazi va tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi binolarini qurish
buyicha qurilishi ushun tanlangan yer uchaskasining
TARXI M-1:2000



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, Sharqdan ochiq moydon, Shimoldan Letsiy Janubdan Baxitli jonelis JSHJ Garib Shimbay Agro klaster JSHJ.

Koordinatasi

42°54'34,134" 59°46'37,734" 42°54'34,165" 59°46'38,549" 42°54'34,559" 59°46'38,541"
42°54'34,556" 59°46'38,628" 42°54'34,778" 59°46'38,597" 42°54'34,767" 59°46'40,306"
42°54'30,206" 59°46'40,347" 42°54'30,228" 59°46'39,083" 42°54'29,786" 59°46'39,104"
42°54'29,707" 59°46'38,091"

Tuman markazidan 1.5 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0.7865 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: Chimboy tumani uchinchi mintaqaviy muvofiqashtirish markazi va TVBSO binolari qurilishi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:13:01:05:7174